

**MUSIQA O'QITISH METODLARI VA ULARNING TURLARI****Sobirova Shaxnoza Sharifovna****Abdurauf Fitrat nomidagi Buxoro maqom****san'atiga ixtisoslashtirilgan maktab internati o'qituvchisi****<https://doi.org/10.5281/zenodo.10803243>**

**Annotatsiya.** Amaliy metodlar tarkibiga kiruvchi har qanday kichik metodlarning dars jarayonida qo'llanishi o'quvchining tegishli mavzusiga bo'lgan bilimlarni to'g'ri shakllantirishga va amaliy jihatdan o'zi bajara olishiga undaydi. Shuning uchun ham bu metodlarga e'tibor qaratish lozim.

**Kalit so'zlar:** Metod, faoliyat, ko'rgazma, vosita, mantiq fikrlash, o'qish, bilish.

Ma'lumki, metodlar o'qitish faoliyati va maqsadlariga qarab quyidagi guruhlarga bo'linadi.

1. O'quvchilarning bilish faoliyatni tashkil etuvchi va amalga oshiruvchi metodlar. Bunda informatsiya berish yoki musiqa idrok etish protsetsinivujudga keltiruvchi metodlar kiradi. Ular og'zaki, ko'rgazmali, amaliy metodlar bo'lib, shuningdek ularga o'qitishning mantiqiy va fikriy aspektlarni amalga oshiruvchi hamda o'qitishni boshqaruvchi metodlar kiradi.

2. Bilish faoliyat rag'batlantiruvchi va motivatsiya qiluvchi metodlar. Bunda bilishga undalovchi o'yin, munozara, rag'batlashtirish va tenbehlash talablar qo'yish kabi metodlar kiradi.

3. O'qish – bilish faoliyati effektivligi boshqarish va nazorat qilish metodlari. Bunda so'roqning turlari, zachyot, imtihon koolvium va boshqalar kiradi.

Bu metodlar o'quvchilar o'ratsida vositachi hamdir. CHunki, ayni bir metod (masalan, vokal xor mashqlari) bilan o'qituvchi o'tadi, o'quvchilar o'rganadi. Zero, metodlar guruhgaga bo'linadi. Og'zaki, amaliy ham ko'rgazmali.

1. Musiqa o'qitishning og'zaki usullari musiqa darsida o'qituvchining o'z mahoratiga alohida talab qo'yiladi. O'qituvchi o'zining asar badiiy kirish so'zi bilan o'quvchilarni sehrli san'at musiqa olamiga olib kiradi va qiziqarli hikoya hamda suhbat bilan bolalar diqqatini musiqa obrazlariga yo'naltiradi va uni badiiy idrok etishga erishadi. Asarda bo'lgan qiziqishning darjasiga ana shu vositaninng sifatiga bog'liq. Bundan hikoya, suhbat, tushuntirish, savol-jaob va kommentariya mutodlaridan foylaniladi.

Hikoya – bu o'qituvchining musiqa asari haqidagi jonli obrazli va emotsiyal yorqin hikoyaviy bayonidan iborat. Hikoya, qissa obrazli qiziqarli bo'lib, undagi bayon mazmuni asosiy maqsad o'quvchilarni asar obrazini badiiy tasavvur etishga va shu vosita bilan musiqa asarini badiiy idrok etishdan iborat. Faqatgina qiziqarli va obrazli qisqa hikoya bolalar qalbida o'rganiladigan asarga nisbatan qiziqish va muhabbat paydo bo'ladi. Hikoya uslubi darsning quyidagi to'rt ko'rinishidan foydalanish mumkin;

1. Kompozitorlarning ijodiy biografiyasida, hikoya bop qiziqarli hikoya va lavhalar bo'lsa.  
2. Asarning yaratish tarixi bayonida masalan: M.Burhonovning "O'zbekiston respublikasi davlat madhiyasi" kabi mashhur va tarixiy asarlarning yaratish sabablari va taqdirini faqat hikoya metodi bilan qiziqarli bayon etish mumkin bo'ladi. Bunda aniq va hujjatli dalil va faktlardan foydalanish zarur.

3. Bolalarni yirik asarlari (musiqali drama, dostonlar, opera, balet, syujet, sujet, simfoniya) badiiy obrazlarga olib kirishi uchun asarning syujeti mazmuni qisqa hikoya qilib beriladi. Bunda syujet mazmuni asosiy maqsad bo'lmaydi. Balki bolalarni asarni musiqaviy, badiiy obraziga olib kirishga yordam bermog'i darkor.

4. Mashhur va atoqli kishilar hayotida musiqa sa'atining rolini bayon etishga masalan, Navoiy va musiqa. Xulosa qilib aytganda, hikoya uslubi orqali keng ma'noda ega bo'lgan mazmun ifoda etiladi va bu usul orqali musiqa asari haqida nazariy tushunchalar beriladi. Suhbat, o'qituvchi va o'quvchi orasidagi dialog formasidagi jamiyatdan iborat bo'lib, o'quvchilarni mustaqil fikrlashga undaydi.

Bunda o'quv materialini bolalarning musiqa haqidagi va amaliy tajribalari bilan bog'liq o'zlashtiradi. Suhbat jarayonida o'qituvchi o'quvchilarning fikriy faoliyatini faollashtiradi, musiqa haqidagi bilim doirasini yangi ma'lumotlar bilan boyitadi. Suhbat uslubi asosan ikki ko'rinishga ega: hikoya – suhbat va suhbat – dialog. Hikoya suhbat jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning to'g'ri ish yuritish va xulosa chiqarishga undaydi.

Dialog – suhbat jarayonida esa ko'proq o'zlarini etakchi faol ko'rsatishga etaklaydi. O'qituvchiga rejissyor singari ularni boshqarib boradi va to'g'ri xulosa chiqarishga undaydi. Amaliy metodlar musiqaning har tomonlama samarali bo'ilishini ta'minlovchi metod hisoblanadi. Amaliy metodlar majmuasiga kruvchi metodlar turlicha bo'lib, har qaysisima'lum bir jihatlarini qirralarini ta'limiy yo'nalishlarini yaqqol puxta tushunarli bo'lishini ta'minlaydi. Amaliy metodlar quyidagilar.

1. O'qvchilarga vokal-xor malakalarini shakllantirishbu metod bevosita o'quvchilar ijrochiligi bilan bog'liq bo'lib cholg'u asbobi yordamida o'quvchilarning kuylash faoliyati va texinaksini mukammal bo'lishini ta'minlovchi metoddir.

2. Musiqaning tuzilishi va ifoda vositalarini tahlil etishga xos amaliy metodlar. Ma'lumki, musiqa asarini tuzilish xarakteri ifoda vositalari bir-biridan farq filadi.

3. Musiqa asarining janr va shakllarini aniqlashda amaliy metodlardan foylaniladi. Ma'lumki, musiqa san'ati turlicha janrlarga bo'linadi, jumladan, qo'shiqchilik, cholg'uchilik, simfoniya, opera, balet, doston va hokazolar.

Xulosa qilib aytganda, amaliy metodlar tarkibiga kiruvchi har qanday kichik metodlarning dars jarayonida qo'llanishi o'quvchining tegishli mavzusiga bo'lgan bilimlarni to'g'ri shakllantirishga va amaliy jihatdan o'zi bajara olishiga undaydi. Shuning uchun ham bu metodlarga e'tibor qaratish lozim.

### References:

1. Yarashev J. Artistic and Aesthetic Features of "Buchor" Tune //Eastern European Scientific Journal. – 2019. – C. 118-122.
2. Yarashev J. T. "BUKHORCHA" AND "MAVRIGI" SONG CLASSES-AS A NATIONAL AND NOETIC SPIRITUAL VALUES OF THE UZBEK NATION //Сборники конференций НИЦ Социосфера. – Vedecko vydavatelske centrum Sociosfera-CZ sro, 2013. – №. 39. – C. 114-117.
3. Ярашев Ж. Т. SONGS OF COMPOSITE CYCLES OF "BUHORCHA" AND "MAVRICHI" AS MUSICAL VALUES FOR UZBEK PEOPLE //Актуальные проблемы современной науки. – 2012. – №. 2. – C. 93-95.
4. Ярашев Ж. Т. Музикальная терапия //Scientific progress. – 2021. – Т. 1. – №. 5. – С. 641-647.
5. Ярашев Ж. Т. Нравственное и эстетическое воспитание учащихся в сотрудничестве с семьей и школой //Academy. – 2021. – №. 3 (66). – С. 42-44.
6. Ярашев Ж. Художественно-эстетические особенности мелодии «Бухорча»

//Восточноевропейский научный журнал. – С. 118-122.

7. Uzakova M. et al. Pedagogical Views of Modern Enlighteners on Art and Music //International Journal of Discoveries and Innovations in Applied Sciences. – 2022. – Т. 2. – №. 6. – С. 56-60.

8. Tourayevich Y. J., Uktamovna M. D. METHODS OF DEVELOPING STUDENT VOCAL DYNAMIC SENSE IN MUSIC CULTURE CLASSES //Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities. – 2022. – Т. 2. – №. 1.5 Pedagogical sciences.

9. Turaevich Y. J., Botirovna K. M. Creativity in the development of music and pedagogical activity in higher education //Thematics Journal of Arts and Culture. – 2022. – Т. 6. – №. 1.

10. Yarashev D. T., Akhrorov K. K. IN THE GROWTH OF MUSICAL ABILITIES OF STUDENTS IMPORTANCE OF USING THE ACT //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – Т. 3. – №. 02. – С. 792-796.

11. Kambarova M.B “O’quvchiarda kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishning nazariy asoslari”. Scientific journal Scholar volume2, Issue 3. ISSN 2181-4147 VOLUME2, ISSUE 3 JANUAR 2024. 36-37-38-39-40 betlar